

O'ZBEKISTONDA SOLIQ YUKINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Jovliyeva Zuhra Chori qizi

Termiz davlat Universiteti

Moliya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasining 2021–2025-yillardagi soliq siyosati, soliq tushumlari dinamikasi va iqtisodiyotga soliq yukining ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi bilan soliq tushumlari o'rtasidagi mutanosiblik, soliq yukining makroiqtisodiy darajasi va uning tarkibiy o'zgarishlari ko'rib chiqilgan. Xususan, bevosita va bilvosita soliqlar nisbatining o'zgarishi, soliq bazasining kengayishi hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirishning fiskal samaradorlikka ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliq yukining darajasi, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, soliq tushumlari tarkibi, soliq ma'murchiligi.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF THE TAX BURDEN IN UZBEKISTAN

Jovlieva Zukhra Chori kizi

Termez State University

Master's student in Finance

Abstract: The article analyzes the tax policy of the Republic of Uzbekistan in 2021–2025, the dynamics of tax revenues, and the impact of the tax burden on the economy. The study examines the relationship between gross domestic product (GDP) growth and tax revenues, the macroeconomic level of the tax burden, and its structural changes. In particular, the impact of changes in the ratio of direct and indirect taxes, the expansion of the tax base, and the improvement of tax administration on fiscal efficiency is substantiated.

АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ НАЛОГОВОЙ НАГРУЗКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Зухра Чори кизи Джовлиева

Термезский государственный университет

Магистрант по специальности «Финансы»

Keywords: taxes, level of tax burden, direct taxes, indirect taxes, structure of tax revenues, tax administration.

Аннотация: В статье анализируется налоговая политика Республики Узбекистан в 2021–2025 годах, динамика налоговых поступлений и влияние налоговой нагрузки на экономику. Исследуется взаимосвязь между ростом валового внутреннего продукта (ВВП) и налоговыми поступлениями, макроэкономический уровень налоговой нагрузки и её структурные изменения. В частности, обосновывается влияние изменений соотношения прямых и косвенных налогов, расширения налоговой базы и совершенствования налогового администрирования на эффективность бюджета.

Ключевые слова: налоги, уровень налоговой нагрузки, прямые налоги, косвенные налоги, структура налоговых поступлений, налоговое администрирование

KIRISH.

Soliqlar davlat iqtisodiyotini va soliq to'lovchilar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda muhim rol o'ynaydi hamda ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi. Davlat ehtiyojlari va moliyalashtirish manbai sifatida soliqlar mamlakat iqtisodiyotiga tushadigan soliq yukining darajasini belgilaydi. Soliq yukining mazmuni va maqsadi bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, aholi turmush darajasi hamda davlatning ichki va tashqi siyosati kabi qator omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda soliq yukini baholash ham makro, ham mikro darajalarda amalga oshirilib, u yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizlarda ifodalanadi. Soliq yukining chegarasi davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatga erishish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Soliqlarning miqdori, stavkalari va tabaqalanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya qilish qobiliyatini hamda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar samaradorligini belgilaydi.

O'zbekistonda 2021–2025-yillar davomida amalga oshirilgan soliq

islohotlari natijasida soliq yukining umumiy darajasi 20% atrofida barqarorlashganini kuzatish mumkin. Ushbu davrda YaIM va soliq tushumlarining sezilarli darajada oshishi fonida soliq yukining bir qadar pasayishi soliq tizimining samaradorligi stavkalarining yuqoriligi bilan emas, balki soliq bazasining kengayishi va iqtisodiy faollikning kuchayishi bilan ta'minlanganini ko'rsatadi. Binobarin, soliq tushumlari tarkibini o'rganish va iqtisodiyotga tushadigan real fiskal bosimni tahlil qilish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq tizimini takomillashtirish va soliq yukini optimallashtirish masalalari klassik hamda zamonaviy iqtisodiy maktablar vakillari tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, soliq solishning nazariy asoslari va soliq yukining iqtisodiy faollikka ta'siri A. Smit, A. Laffer, M. Fridman va A. Pigu kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Soliq yuki tushunchasi davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida YaIM ulushini taqsimlash bo'yicha yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida e'tirof etiladi. O'zbekistonda soliq tizimini isloh qilish, soliq yukini baholash metodologiyasi va uni makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini o'rganishda mahalliy olimlardan A. Vaxobov, I. Niyazmetov, U. Pardayev, A. Nazarov, A. Jo'rayev va boshqalar sezilarli hissa qo'shganlar. Mazkur tadqiqotchilar o'z ishlarida soliq yukining darajasi davlat ehtiyojlari va xarajatlarining hajmi bilan belgilanishini alohida ta'kidlaydilar.

Shunga qaramay, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli soliq islohotlari, xususan, bilvosita va bevosita soliqlar tarkibidagi transformatsiya jarayonlari hamda soliq yukining YaIMga nisbatan dinamikasi sharoitida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlar va qilingan tahlillar aynan hozirgi bosqichdagi soliq yukini optimallashtirish masalalarini yoritishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy solishtirish, tizimli yondashuv va induksiya usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot metodologiyasi mamlakat iqtisodiyotiga tushadigan soliq yukini makrodarajada (YaIMga nisbatan tushumlar ulushi) baholashga asoslangan bo'lib, unda statistik ma'lumotlar guruhlashtirilgan va tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida soliq tushumlarining tarkibiy dinamikasi o'rganilib, soliq yukining o'zgarishi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlik qiyosiy tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Soliq yuki davlat tomonidan belgilanadigan soliq og'irligining o'lchovi hisoblanadi. U jismoniy va yuridik shaxslar daromadlariga, shuningdek, davlat boshqaruvining barcha darajalarida qo'llaniladigan bevosita va bil vosita soliqlarning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Bu yuk yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizlarda ifodalanadi.(1) Soliq yukining mazmuni va maqsadi iqtisodiy rivojlanishning strategik bosqichlari bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soliq yukining yuqori va quyi chegaralari bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, davlat tomonidan tartibga solish ko'lami, aholi turmush darajasi hamda soliq madaniyati kabi omillarga tayanadi. Ammo soliq yuki tushunchasining asosiy qismi davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida YaIM ulushini taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Shunday qilib, soliq yukining chegarasi soliq solishning shartli punkti bo'lib, bunda soliq to'lovchilar manfaatlarini hisobga olgan holda ularning soliqqa tortilishi va rivojlanish uchun rag'batlantirish hamda budjetni to'ldirishning etarliligi nuqtai nazaridan davlat manfaatlarini hisobga olgan holda muvozanatga erishiladi. Soliq solish nazariyasi va amaliyotida soliq yukini baholash davlat darajasida (makrodarajada) va alohida soliq to'lovchilar darajasida (mikrodarajada) amalga oshiriladi. Tahlil jarayonida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

Soliq yukining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati: Soliq yuki tushunchasi shunchaki fiskal ko'rsatkich emas, balki davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida YaIM ulushini taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha yuzaga keladigan

murakkab munosabatlar tizimidir.

Manfaatlar muvozanati: Soliq yukining optimal chegarasi soliq to'lovchilarning rivojlanish uchun rag'batini saqlab qolish va davlat budjetini yetarli darajada to'ldirish manfaatlari o'rtasidagi muvozanat nuqtasi hisoblanadi.

Darajalar bo'yicha baholash: Amaliyotda soliq yukini baholash makrodarajada (davlat miqyosida) va mikrodarajada (alohida soliq to'lovchilar kesimida) amalga oshirilishi fiskal siyosatning aniqligini ta'minlaydi.

Soliq yukining iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish, birinchi navbatda, soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini baholashni anglatadi. Soliq turlari, stavkalari va imtiyozlarining tizimligi xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamg'arish hamda investitsiya kiritish qobiliyatini belgilab, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va umumiy samaradorlikni shakllantiradi

2023-yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda 1 kvadrillion 66,5 trln so'm yoki 90,8 mlrd dollarni tashkil etdi. Qayd etilishicha, O'zbekiston iqtisodiyoti 2023-yilda 6 foizga o'sgan. YaIM aholi jon boshiga 29,3 mln so'm yoki 2494 dollarga etdi. Shuningdek, sof soliqlar miqdori 7,4 foizga o'sgan.

2024-yilda esa O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti joriy narxlarda taxminan 1 454,6 trln so'mni yoki 114,96 mlrd dollarni tashkil etdi. Iqtisodiyot 2024-yilda real ifoda bo'yicha 6,5 foizga o'sdi. Aholi jon boshiga YaIM 39,1 mln so'm yoki 3 092,7 dollarga etdi. Sof soliqlar mahsulot o'sishiga ijobiy hissa qo'shdi. 2025 yilda yalpi ichki mahsulot real qiymat bo'yicha 7,7 foizga o'sib, 1 849,7 trillion so'mni tashkil etdi. Iqtisodiyot hajmi dollar hisobida 147 mlrd dollardan oshdi. Bu 2023 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'ati hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq organlari 2025-yilda budjetga 247,8 trln so'm tushum ta'minlagani, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 24 foiz yuqori ekani qayd etilgan.

2021-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi budjetida soliq tushumlari tarkibi, trln so'm¹.

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
----------------	------	------	------	------	------

¹ Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan

Davlat budjeti daromadlari, mlrd so‘m	164,799	201,864	231,721	274,423	359,824
shu jumladan:					
1. Bilvosita soliqlar – jami	56,2	71,3	83,3	88,3	92,6
1.1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS):	38,4	52,2	57,9	59,8	61,4
1.2. Aksiz solig‘i	13,1	13,5	15,8	19,1	20
1.3. Bojxona boji	3,5	5,7	9,6	10	11,2
2. Bevosita soliqlar – jami	58,9	64,4	73,1	90,1	117,8
2.1. Foyda solig‘i	38,4	37,6	40,7	52,7	72,3
2.2. Aylanmadan olinadigan soliq	1,6	2,5	2,4	2,8	3,1
1.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	18,9	24,3	29,9	35,3	42,4
3. Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i	23	23,9	28,1	36,3	45,3
3.1. Mol-mulk solig‘i	2,5	4	5,1	6,8	8,0
3.2. Yer solig‘i	4,1	5,3	6,9	8,2	10,1
3.3. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	15,8	13,9	15,3	20,1	25,8
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,7	0,7	0,8	1,2	1,4
4. Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan tushumlar	26,5	42,1	47,2	58,9	67,8

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, davlat budjeti daromadlar 2021 yildagi 164,8 trln so‘mdan 2025 yilga kelib 359,8 trln so‘mga yetgan. Bu qariyb 2,2 baravar o‘shishni anglatadi. 2021 yilda bilvosita soliqlar (56,2 trln) va bevosita soliqlar (58,9 trln) deyarli teng bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib bevosita soliqlar (117,8 trln) bilvosita soliqlardan (92,6 trln) sezilarli darajada o‘zib ketganini ko‘rishimiz mumkin. Foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 2021 yildagi 38,4 trln so‘mdan 2025 yilda 72,3 trln so‘mga yetishi, biznes faolligining oshishi va iqtisodiyotning legallashayotganidan dalolat beradi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (JSHODS) barqaror o‘sib, 18,9 trln so‘mdan 42,4 trln so‘mga (2,2 baravar) yetgan. Bu ish o‘rinlari soni va rasmiy ish haqining o‘sayotganini ko‘rsatadi.

Bilvosita soliqlar tarkibida QQS (Qo‘shilgan qiymat solig‘i) asosiy drayver bo‘lib qolmoqda. Qizig‘i shundaki, QQS stavkasi pasaytirilganiga qaramay, tushumlar miqdori 38,4 trln so‘mdan 61,4 trln so‘mga oshgan. Bu soliq bazasining kengayishi va ma‘murchilikning yaxshilanishi natijasidir. Jadvaldagi bilvosita soliqlar jami 65,2 mlrd so‘m, bevosita soliqlar 117,8 mlrd so‘m, resurs va mol-mulk soliqlari 43,9 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu tarkib soliq yukining asosiy

qismi ichki iste'mol, foyda va resurslardan foydalanish orqali shakllanayotganini ko'rsatadi.

2025-yilda soliq tushumlari tarkibida foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yuqori ulushni tashkil etgani ishlab chiqarish rentabelligi, ichki iste'mol va bandlikning kengayganidan dalolat beradi. Foyda solig'i tushumlarining oshishi korxonalar moliyaviy natijalarining yaxshilangani va iqtisodiyotda foyda yaratish salohiyati kuchayganini ko'rsatadi. QQS tushumlarining ko'payishi esa tovar va xizmatlar aylanmasi kengayganini, ichki bozor faollashganini bildiradi. Daromad solig'i tushumlarining o'sishi rasmiy ish o'rinlari va ish haqining oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, resurs va mol-mulk soliqlari ham muhim o'rinni saqlab qolgan. Bu soliqlar tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda mulkdan olinadigan fiskal daromadning iqtisodiyotdagi ulushi barqarorligini aks ettiradi. Demak, 2025-yil natijalari soliq yukining tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashganini va budjet daromadlarining bir nechta manba hisobidan shakllanayotganini ko'rsatadi.

2025-yilgi natijalar soliq yukining iqtisodiyotga ta'siri bir tomonlama salbiy yoki ijobiy baholanmasligini kerak. Aksincha, soliq tushumlarining o'sishi iqtisodiy o'sish bilan birga kechgani soliqlar davlat xarajatlarini moliyalashtirishda barqaror manba bo'lib xizmat qilganini anglatadi. O'zbekistonda soliq yuki iqtisodiy o'sish bilan mutanosib ravishda oshgan bo'lib, bu holat davlat budjeti daromadlarining ko'payishi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, soliq tizimining samaradorligi soliq stavkalarining yuqoriligi bilan emas, balki soliq bazasining kengayishi, iqtisodiy faollikning kuchayishi va soliqlarni undirishdagi institutsional samaradorlik bilan belgilanganini ko'rish mumkin.

Makrodarajada soliq yukining umumiy darajasini baholashning eng keng tarqalgan usuli bu davlat budjeti daromadlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati sifatida o'lchash. Statistik ma'lumotlar asosida O'zbekistondagi soliq yuki darajasini tahlil qilamiz.

O‘zbekistonda 2021–2025-yillarda soliq yuki darajasi²

Ko'rsatkichlar	2021-y	2022-y	2023-y	2024-y	2025-y
Davlat budjeti tushumlari, mlrd. so'm	164 681	202 043	231 700	274 423	359 824
Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so'm	734 600	888 300	1 066 569	1 454 600	1 849 700
Soliq yukining umumiy darajasi	22,4%	22,7%	21,7%	18,9%	19,5%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2021–2025-yillar davomida soliq yukining umumiy darajasi 20% atrofida barqarorligini kuzatamiz. Bu esa, tadbirkorlik subyektlari va aholi ishlab topgan mablag‘larining to‘rtidan bir qismini davlat manfaatiga yo‘naltirayotganidan dalolat beradi. 2025-yilda 2021-yilga nisbatan soliq yuki darajasining 3% ga pasayganligini, o‘tgan yilga nisbatan esa 0.6% ga o‘sganini kuzatamiz. 2024-yilda soliq yukining umumiy darajasi 2021-yilga nisbatan 3,5% ga pasayib, 18,9 foizni tashkil etdi. Shuningdek bu davrda yalpi ichki mahsulot va soliq tushumlarining sezilarli darajada oshib borishi kuzatildi.

Dunyo mamlakatlarida soliq tizimi xilma-xil bo‘lib, ularning soliq tuzilishi ham turlicha. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar soliq solishning past darajasidan tortib juda yuqori darajasigacha sezilarli darajada farq qiladi. Hatto bir mamlakat doirasida ham soliqlar xarid qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning turiga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘plab mamlakatlarda ilg‘or soliqqa tortish tizimlari mavjud bo‘lib, unda yuqori daromadli aholi past daromadli aholiga qaraganda o‘z daromadlarining kattaroq qismini soliq sifatida to‘laydi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘rayev Sh. (2021). Soliq yukiga oid ilmiy qarashlarning rivojlanish tendensiyalari. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» jurnali. № 4, 324-335.
2. Niyazmetov I. (2017). O‘zbekiston soliq tizimi: muammolar va takomillashtirish yo‘llari. Monografiya. – 195-b.
3. Rudenko Ye. (2022). Nalogovaya nagruzka: metodika rascheta, otsenka i analiz. Nauchniy 285 2024-yil. № 10-son jurnal « Epomen», № 74, 65-74.

² Rasmiy ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

4. Юлдашева У. (2023). Влияние налоговой нагрузки на финансовую деятельность субъектов предпринимательства в Узбекистане и ее текущее состояние. *Economics and Innovative Technologies*, 11(5), 356–364.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni. [lex.uz>docs/6600413](https://lex.uz/docs/6600413)